



FARG‘ONA VILOYATI O‘ZBEKISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil «24» - dekabr

424-11-161-Q/22

O‘zbekiston tuman hokimligi

“Alisher Navoiy” nomli madaniyat va istirohat bog‘ini ma‘muriy binosini buzishga o‘rnida va bo‘sh yer maydonida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo‘llagan xususiy sherikka ijaraga berish bo‘yicha tanlov elon qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 10-may kungi “Davlat xususiy-sherikchilik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvar kungi “Xizmatlar soxasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi “Davlat xususiy-sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 avgustdagi “Istirohat bog‘lari va yashil zonalarni tashkil etish metodologiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 671-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022 yil 7 iyun kungi “Xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta‘minlash hamda daromadlarini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 47-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston tuman Yaypan shahri markazida joylashgan tuman xokimligi balansidagi “Alisher Navoiy” nomli madaniyat va istirohat bog‘ini 214.20 kv.m yer maydonidagi ma‘muriy binosi va unga tutash 0.06 ga jami: 814.20 kv.m yer maydonida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo‘llagan xususiy sherikka ijaraga berish bo‘yicha tanlov komissiyasining tarkibi 1-ilovaga muvofiq

tasdiqlansin.

2. Tanlov komissiyasi raisi (X.Alijonov), besh kun muddatda tanlov komissiyasining ish reglamentini tasdiqlasin hamda davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun Hukumatning 2018 yil 17 avgustdagi 671-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 8-bandida nomlari keltirilgan faoliyat turlari asosida eng maqbul taklifni tanlash bo'yicha joriy yilning 24-dekabr kunida hokimlikning rasmiy saytida, boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlikning davriy bosma nashrlariga Nizomning 34-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar joylashtirilsin hamda tanlov takliflarini qabul qilishning oxirgi muddati **2023-yil 24-yanvar soat 18⁰⁰** etib belgilansin.

3. Tanlov o'tkazish sanasi **2023-yil 3-fevral kuni soat 15⁰⁰** da tuman hokimligining majlislar zaliga tayinlansin.

4. Davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish shakllari bo'yicha talab etiladigan investisiya va ijtimoiy majburiyatlarning minimal hajmi 7 (yetti) mlrd so'm etib belgilansin.

5. Tanlovda ishtirok etish uchun tuman hokimligiga quyidagi hujjatlar ilova qilingan buyurtmanoma taqdim etilishi belgilab qo'yilsin:

tanlovda ishtirok etish uchun buyurtmanoma taqdim etilgan kundan boshlab bir oy oldingi holatga ko'ra, soliqlar, yig'imlar, boshqa majburiy to'lovlar va moliyaviy sanksiyalar bo'yicha qarzdorlik yo'qligi to'g'risidagi axborot;

xususiy sherikning sof aktivlari, boshqa tashkilotning loyiha qiymatidan kamida 25 foiz miqdoridagi kafolati to'g'risida davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishning moliyaviy imkoniyatlarini tasdiqlovchi axborot;

istirohat bog'ini bir qismini qurish ya'ni "Alisher Navoiy" nomli madaniyat va istirohat bog'ini 214.20 kv.m yer maydonidagi ma'muriy binosi va unga tutash 0.06 ga jami: 814.20 kv.m yer maydoni bo'yicha loyiha taklifi hamda dastlabki texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

6. Xususiy sherikka:

Davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejalashtirish topshirig'i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berilsin hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun lisenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzish;

loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan

1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun lisenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish;

Davlat arxitektura va qurilish nazorati inspeksiyasiga xabarnoma yuborish;

mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko'chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlarini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi vazifalari yuklatilsin.

7. Tanlov komissiyasining ishchi organi (O. Qurbonov)ga tanlov hujjatlarini tayyorlash, xususiy sheriklarning tanlovda ishtirok etishi uchun buyurtmanomalarni ro'yhatga olish va ularning mazmuni maxfiylikini hamda saqlanishini ta'minlash, xususiy sheriklarni istirohat bog'i bilan tanishtirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sheriklarni taqdim etiladigan hujjatlar namunalari bilan ta'minlash, shuningdek, ularni rasmiylashtirishga ko'maklashish, tanlov yakunlari to'g'risidagi axborotni chop etilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari X.Alijonov hamda tuman hokimining qurilish, kommunikasiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari Sh.Ismoilovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b



X.Alijonov

O'zbekiston tuman hokimining
2022 yil 24 dekabrda
424-11-161-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Xususiy sheriklarning takliflarini ko'rib chiqish

bo'yicha tanlov komissiyasi

TARKIBI

- | | |
|----------------|---|
| 1. X. Alijonov | - tuman hokimining birinchi o'rinbosari, tanlov komissiyasi raisi |
| 2. A. Umarov | - Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari |
| 3. M. Sattorov | - tuman Moliya bo'limi boshlig'i |
| 4. A. Rajabov | - Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'i |
| 5. R. Xasanov | - tuman Qurilish bo'limi boshlig'i |

Izoh. Tanlov komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'tganda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi